

So'zboshi

Shoirning ismi sharifi Ziyovuddin bo'lib, otasining nomi Kattaxo'jadir. Bo'lajak shoir 1867 yil iyunCHb oyida Farg'ona viloyatining Kenagas qishlog'ida ziyoli-dehqon oilasida dunyoga keladi. U boshlang'ich ma'lumotni otasidan olgan. So'ng mutolaa yo'li bilan ko'p bilim hosil qilib, fazlu, kamolatga erishgan. Haziniy dehqonchilik kasbi bilan shug'ullangan, Hozirgi Bag'dod tumanidagi Chopdor qishlog'idagi qumlik yerkarni o'zlashtirgan, mevali daraxtlar ektirib, bog' yaratgan, katta hovuz kavlatgan, tegirmon va boshqa binolar qurdirgan.

Xaziniy ijodi xaqida uquvchiga ma'lum tasavvur beruvchi "Bayozi Haziniy" ["Haziniy bayozi"] Toshkentda uch marta chop etilgan. Dastlab xijriy 1328 milodiy 1910 yilda Toshkent shahrida "Matbaai G'ulomiy"da nashr etilgan she'riy majmuasining unvon varag'ida shunday deyilgan: "Alhamdulillah va-l minnaki, ushbu kitobi mustatob [yoqimli]

saodat intisob [baxtiyorlikka mansub] bu ovoni fayziqtironda va zamoni farxatnishonda shoiri otashzabon, ayni Haziniy to'ra eshoni Xo'qandiyning ash'orlaridan xo'shachinlik qilib jam' etilub, safxai ijodga namudor qilindi. Nechunkim, alhol ushbu xojaning abyotlari Farg'ona va Toshkend va g'ayri yerkarga maqbul va marg'ubdur. Binobarin, tab' va tamsilig'a qo'shish qilinub, nom qo'yuldi "Bayozi Haziniy" maa ash'ori g'aribai shuaro Digar va abyoti havodisi zilzilai Andijon deb. Muning sharig'a sa'i balig'ko'rgezgon faqirul haqir, tojiri kutub Mirzo Ahmad binni Mirzo Karim mahrum".

"Bayozi Haziniy" hijriy 1329 (milodiy 1911) yilda shoirning yangi she'rlari bilan boyitilib ikkinchn marta nashr etildi. Uchinchi marta mazkur bayoz hijriy 1331 (milodiy 1913) yilda Toshkentda, O. A. Porsey matbaasida bosildi.

Mashhur hofizimiz mulla To'ychixon Toshmuhammadxon o'g'lining qo'shiqlaridan tuzilgan "Armag'oni Hislat" (Toshkand, "matbaai G'ulomiy", 1912 yil) bayoziga Haziniyning "Yo Hayot an-nabiy" radifli g'azaliga Kamiy va mazkur bayoz kotibi Sirojiddin maxdum Shavkatning bog'lagan muxammalsari, "Kel" radifli g'azaliga Hislat bog'lagan muxammalsi kiritilgan. Avvalgi ikki muxammalsining "Ho'qandcha xonish" ohangida, keyingisining "Dilxiroj" kuyida aytilishi uqtirilgan.

"Bayoz" maa "Gulshani ash'or" (Toshkand, 1913 yil) bayoziga shoirning g'azali va muhammasi kiritilgan. Toshkandda nashr etilgan "Mahbubul-mahbub" bayoziga ham Farg'ona muzofotidan yetishgan shoirlar asarlari qatorida Haziniyning Hamza muxammalsi bog'lagan g'azali va Amoniy Araboniyning shoirning "Koshki" radifli g'azaliga bog'lagan muxammasi kiritilgan. Shoир avlodlarining ta'kidlashlaricha, Haziniy o'z she'rlariki jamlab devon tuzgan. Keyinchalik bu devon shoirning katta o'g'li Amakixonda saqlangan. 30-yillard oxiridagi qatog'on paytida Amakixonni eshonlikda ayblab, uyini tintuv qilib, otasining devoni olib ketilgan, o'zini qamashgan. Bu nodir devonni izlash hozirga qadar natija bergani yo'q.

Taassuflarkim, ulug' qadriyatlarimizdan sanalmish o'tmish adabiyotimizga sinfiy, partiyaviy nuqtai nazardan qaralgan vaqtarda, ko'hna va boy adabiyotimiziing ko'plab namoyandalari sun'iy ravishda "ilg'or" va "reaksion" guruhlarga bo'lib, noxolis baholandi... Turkiy xalqlarning faxri, faylasuf shoir, mutafakkir "sulton orifin" (oriflar sultoni), "qutbi millat vaddin" ("millat va dinning qutbi") Xo'ja Yassavyi hazratdan tortib bu zoti bobarakotning izdoshlari So'fi Olloyor, Majzubi Namangoniy, Qoriy, Muhyi, Azimiyy, Jaloliy, Haziniy Ho'qandiy kabi o'nlab shoirlarimiznpng purhikmat asarlaridan xalqimiz yaqin yillargacha mahrum bo'lib keldi.

Ming shukrkim, mustaqillik va ozodlik sharofati tufayli o'tmish madaniy-adabiy merosimizni xolis o'rganish, bor haqiqatni aytish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Haznniyan'anaviy ishqiy g'azallar yozish bilan birga tasavvuf ruhida ham asarlar yozgan. Uning ijodiy xazinasining ma'lum bir qismini Qur'on oyatlari hamda Muhammad alayhissalom hadislariga da'vat qiluvchi asarlar tashkil qiladiki, bu xususiyat shoirga islomiy nuqtai nazardan ham alohida e'tibor ko'rsatilmog'ini taqozo etadi.

Biz ushbu to'plamga Haziniyning har uchala toshbosma bayozidan, G'afur G'ulom nomidagi Farg'ona viloyati muzeyi jamg'armasidagi 45, 4312-raqamli qo'lyozma bayozlardan va boshqa manbaalardan 961 misradan iborat 49 ta she'ri ni aniqlab, kiritidik. To'plam an'anaviy devon tartibida tuzildiki, niyatimiz kitobxon mutoalasini ravonlashtirish edi. Albatta, ushbu majmua dastlabki tajriba bo'lganligi uchun ayrim nuqsonlardan xoli bo'lmasligi tabiiydir. Buning uchun uzr so'rab, to'plam haqidagi fikr-mulohazalarigini mamnuniyat bilan qabul etishimizni bildiramiz.

Ahmad Madaminov,
filologiya fanlari nomzodi

G'azallar

Jahoni bevafodin oxiri bir kun ketar bordur,
Bu dunyo bir rabot, har kim qo'nub bir-bir o'tar bordur.
Ishonma bog'u rog'ing, molu mulku taxtu baxtingga,
Quyoshdin ibrat olg'il, turmayin oxir botar bordur.
Agar ming yil umr ko'rsang, jahong'a podsho bo'lsang,
Bo'lub xoki mazzallat, go'r arosida yotar bordur.
Ibodat aylag'il tangrig'a doim, uxlamay tunlar,
Imoningni salomat eltgali necha xatar bordur.
Yigitlik davrini surgil, qarib toat qilursan deb,
Savobingg'a xudo muhtoj emas, deb o'rgatar bordur.
Haziniy, bandalikda, bas yurursan bexabar, g'ofil,
"Kiroman kotibayn" kim xayru sharringni bitar bordur.

Istasa har kim xudoni, ko'ngli vayrondin topar,
Tun sahrlarda va yo ul chashmi giryondin topar.
Layli Majnundin xabar olmoqni qilsa muddao,
Oshiqi sargashtani oh ila afg'ondin topar.
Ketti Baytullog'a Adham taxtu baxtidin kechib,
Jomayi paymonasin sahroda cho'pondin topar.
Yusufim deb yig'lar erdi, baytul-ahzonda mudom,
Ya'qub o'g'lini so'rab gar Misri sultondin topar.
Oqil donoda yo'qtur zarracha ayshu huzur,

Bu jahon nash'u namosin so'rsa, nodondin topar.
 Suhbat Hizri nabini qilsa har kim orzu,
 Misli ul Muso Kalimdek obi hayvondin topar.
 Yor vasli quflini gar istasa miftohini,
 Justujo' qilsa kishi, albatta hijrondin topar.
 Misli ul Vaysul-Qaran cho'llarda tutmishman vatan,
 Istasa har kim Haziniyi registondin topar.

Sano aytib xudog'a andalib so'yi chaman yig'lar,
 Qayerda joyi maxfiy bo'lsa, ul aylab vatan yig'lar.
 Judo bo'lsa kishikim Yusufidin piri Kan'ondek,
 Firoq o'tig'a o'rtab, sokini baytul-hazan yig'lar.
 Jahondin ketti Yahyo giryadin to'xtatmayin ko'zni,
 Biyobonda misoli haqni deb, Vaysul-Qaran yig'lar.
 Rizo bo'lsa o'shal Ayyubi sobirdek balosiga,
 Ado aylab vujudin kirmga, majruh badan yig'lar.
 Ki "Va-l yabku kasiran" ma'nisini o'ylagan odam
 Hayoti ichra kulmay, barchadin tarki vatan yig'lar.
 Yaratgan xoliqidin o'zgasini suymasa har kim,
 Xuddodin harna kelsa, misli ul dashti mihan yig'lar.
 Tiriklikda, Haziniy, har kishi fikrini qilmabdur,
 Agar o'lsa, ani holig'a go'r ichra kafan yig'lar.

Necha donolarni nodon ayladi ishqil majoz,
 Yorni ko'yida sarson ayladi ishqil majoz.
 Har kishi Majnun bo'lub, Laylimi gar qilsa talab,
 Maskanin dashtu biyobon ayladi ishqil majoz.
 Tesha urdi Qo'hkan Shirinni hajrida mudom,
 Va'dayi vaslida bejon ayladi ishqil majoz.
 Tohiri g'urbatkashida o'ldi Zuhro ko'yida,
 Yori ruxsorin qizil qon ayladi ishqil majoz.
 Shayxi San'ondek dilini bo'ynig'a zunnor osib,
 Hukmi tarsobacha xukbon ayladi ishqil majoz.
 Yusufim deb yig'latib Ya'qubni qirq yilg'acha,
 Manzilimi baytul-ahgon ayladi ishqil majoz.
 Hosil etmasdin Zulayho matlabin jononidin,
 Oxiri zindoni bo'hton ayladi ishqil majoz.
 Ey Haziniy, mavlaviy Jomiy bilan Hamdamni ko'r,
 Ul Xusayn Mirzoni tug'yon ayladi ishqil majoz.

Gunahga tavba aylab, emdi toat qilmasam bo'lmas,
 Xatoyu ma'siyatlarga nadomat qilmasam bo'lmas.
 Abas o'tti yigitlik, sad darig'o, bexabarlikda,
 G'animatdurd, tiriklikda ibodat qilmasam bo'lmas.
 Na yuz birla borurmiz tuhfaziz haq qoshig'a fardo,
 Hayotim boricha emdi, ibodat qilmasam bo'lmas.
 Sulukim - Qodiriya, rahbarimdur piri pironim,
 Saharlar zikri ollohungi odat qilmasam bo'lmas.
 Yurub nafsim uchun shul vaqtqacha, toatni tark ettim,
 Qanoat shahrig'a borib, tijorat dilmamasam bo'lmas.
 Fujuru fisqu isyonim xaloyiqlar aro shuhrat,
 Madina, Makkatulloni ziyyorat qilmasam bo'lmas.
 Egosiz it kabi umrum o'tubdur darbadarlikda,
 Haziniy ixtiyori emdi, hijrat qilmayeam bo'lmas.

Kimda dard yo'qtur, biling, hargiz davoni istamas,
 Ko'rsa Luqmonni agar, andin shifoni istamas.
 Tushsa har kimni dilig'a zarraye ishq o'tidin,
 Tark etar hoyu havas, g'ayr az xudoni istamas.
 Haq rasulning payravida bo'lmasa, ummat demang,
 Ro'zi mahsharda shafoat Mustafoni istamas.
 Adlig'a zabt ayladi vaqt xalofatda Umar,
 "Jomi' al-Qur'on" o'shal koni hayoni istamas.
 Ul Alisheri xudo Duldulsuvori lofato,
 Shahsuvori arsayi Xaybarkushoni istamas.
 Haq kanizi erdilar, Zahro o'shal oliynasab,
 Mustafoni qizlari Xayrunnisoni istamas.
 Bul Haziniy ko'nglida ixlosi ul mayxonadin,

Do'zax o'tig'a ushandog' mubtaloni istamas.

* * *

O'ylasam, mahbubima olamda jonon o'xshamas,
Jannat ichra huru g'ulmon, balki rizvon o'xshamas.
Bir ajab ma'shuqaye monandi yo'qtur, benazir,
Ehtimoli bor, Yusufdin bo'lak jon o'xshamas.
Ul zamonlar chashmi Majnun birla ko'rmas Laylini,
Zarra tushsa ishq, ko'z yoshig'a boron o'xshamas.
Har nechuk dardu alamdin yor savdosi muhol,
Marhami yorin visoli, boshqa darmon o'xshamas.
Musiqiy minqori qumri, andalib savtin netay,
Nola qilsa nag'mayi Dovudi xushvon o'xshamas.
Naylaram, dardu alam tortmoqdin o'zga chora yo'q,
To Haziniy, topmasam vasfini, devon o'xshamas.

* * *

Qayu jonlik jahong'a kelsa, oxir o'lmayin qolmas,
Tiriklikda xaloyiq bir-biri qadrini bilmas.
Ajab motamsaro dunyo erur, poyoni yuq, bilsam
Ki, san dunyog'a mag'rur o'limg'il, hargiz vafo qilmas.
Ayog'ing ostig'a boqg'il, hamma yer ichra pinhondur,
Manam shundek bo'lurman, deb sani parvoyinga kelmas.
Lahad ichra yotursan, yozu qish o'tgonini bilmay,
Ug'ul-qiz, yoru do'sting bir kelib sandin xabar olmas.
San o'lgan so'ng hama farzandlaring molingni olg'aylar,
Sani holing nechuk kechgay qaro yerda, bular bilmas.
O'lum yoshu qari, shohu gadolarg'a barobardur,
Biling, jon olg'uchi elni nazarga zarracha ilmas.
Bu besh kunlik umrg'a joyu manzil ham kerakmasdur,
O'lumni o'ylagan odam bu dunyoga nazar solmas.
Jahannam otashini, go'r azobin o'ylagan odam
Sirotul-mustaqimdin o'tmaguncha yig'lagay, kulmas.
Haziniy, oxiratga har kishi imon bilan borsa,
O'shal yerda ani san anglagil, o'lgan bila o'lmas.

* * *

Bu o'tar dunyoga, do'stlar, bog'u bo'stoning g'alat,
Barchani tashlab ketarsan, ko'shku ayvoning g'alat.
Har kishi dunyog'a keldi, oxiri bir kun ketar,
Toat etmay doimo behuda yurgoning g'alat.
O'ylagilkim, kettilar deb jumlai xeshu tabor,
Bir kuni san ham ketarsan, munda turgoning g'alat.
Anglagil, shohu gadolarga barobardur o'lum,
Qil safar asbobini, behuda yurgoning' g'alat.
To'sha olmasdin borur bo'lsang xudoni oldig'a,
Tuhfa kelturdingmu, deb so'rgonda armoning g'alat.
Ey Haziniy, bu nasihatga kishi salsa quloq,
Muddaiylar sanga aytur, harna ayg'onning g'alat.

* * *

Qo'ydi ham ko'ksum aro yuz ming jafolarni firoq,
Ajratib bizdin yana ko'p oshnolarni firoq.
Vodarig'o, hasrato, ketti hama ahboblari,
Ham judo etti yana xesh-aqrabolarni firoq.
Lof urub, olam - mani mulkum, degan shahlar qani?
Qo'yimagay oxir, biling, shohu gadolarni firoq.
Dardig'a topmay davo, ketti Falotundek hakim,
Oldi yer qo'ynng'a ko'p aqli rasolarni firoq.
Ahmadi Muxtor kettilar jahondin, do'stlar,
Yuz yigirma to'rt ming ham avliyolarni firoq.
Shoh bo'l, xohi gado, dunyo vafo qilmas sangi,
Barchamizni qo'yimag'ay ham rahnamolarni firoq.
Ey yoronlar, bilsangiz, dunyo erur qo'hna rabot,
Xotun, erkak qo'yimagay ham yosh balolarni firoq.
Xonaqoda o'lтуруб zikr aylagan shayxlar qani?
Jonini oldi, biling, ko'p avliyolarni firoq.
Naqdi umringni dilingga olgucha toatda bo'l,
Ey Haziniy, aytasan zikru sanolarni firoq.

* * *

Baytul-ahzonim sori Yusuf kabi zebocha kel,
Sabzalarinn yashnatib, gulzor aro ra'nocha kel.

Misli Majnundek biyobonlarda yursam oh urub,
 Holi zorimni ko'rub, lutf aylabon Laylocha kel.
 Ostoning yostonib yotsam, o'shal Vomiq kabi,
 Chun tag'oful aylamay, har damda bir Uzrocha kel.
 Ham chunon Farhod kabi tog'larni kezsam necha yil,
 Misli Shirin qo'lida bir xanjari burrocha kel.
 Ehtiyyot aylab o'zing, el ko'zidin pnmon qilib,
 Bilmasun ul shum raqiblar, qilmayin ifshocha kel.
 Xoh qishloq, xoh shaharda, mayli, yursang to'ffilik,
 Kechasi kokul solib, bazm aylashib, dурrocha kel.

* * *

Qomatingni ko'rsatib, yor etdingu rahm etmading,
 Man g'aribga suhbating bor etdingu rahm etmading.
 Va'dalar aylab deding, doim sango aylay vafo,
 Ahdu paymon sindurub, xor etdingu rahm etmading.
 Dildagi hasratlarimni aytmoqa hamdard yo'q,
 Manga muncha jabr ila kor etdingu rahm etmading.
 Ibtidoi ko'rganimda iltifot etmay, yana
 Chulg'amoqg'a ankabut, tor etdingu rahm etmading.
 Necha muddat oshnolikni bajot aylab, yana
 Emdilikda na sabab? Zor etdingu rahm etmading.
 Dor aylab Mansuri Xallojdek osturmoqa,
 Bu judolik rishtasin, dor etdingu rahm etmading.
 Nuqtadonlar toki bilsun deb Haziniy hasratin,
 Ahli donish maskanin, tor etdingu rahm etmading.

* * *

Tovus kabi mahvash, mastona xiromon qil,
 Raftoring aro jilvang et, barchani hayron qil.
 Vaslingni umidida yursun hama qon yig'lab,
 Har va'daye vaslinga furqat ila hijron qil.
 Xavf ila farog'at yo'q, o'y lab, o'yima yetmay,
 Arzimni bayoni aylay, bu mushkilim oson qil.
 Ul qaddi nihol uzra zebo iki noringdin
 Kim, oning talabgori, jononinga ehsan qil.
 Noz ila tag'ofulni tark et, bu Haziniyg'a,
 Bir kecha visolingga, ho, bir, uka, mehmon qil.

* * *

Xalildek otashi Namrudga kirsam, o'lsa gulzorim,
 Himoyat aylagay xoliq, o'zi bo'lsa xaridorim.
 Chiqibon ko'hi Turga, "rabbano" deb man sado qilsam,
 Nidoyi "lantaro"nikim mango yetkur Sattorim.
 Boshimg'a arra qo'ysa, Zikriyoni zikrini aytosam,
 Xudog'a ma'qul o'lg'aymu mani bu fe'l u atvorim.
 O'shal Yahyo kabi cho'llar aro ohu navo qilsam,
 Egamni dargahiga manzur o'lg'aymu mani zorim?
 Vujudimg'a tushub qurtlar o'shal Ayyubi sobirdek,
 Qazosig'a rizo bo'l sam, mango rahm etsa G'afforim.
 Kechibon taxtu baxtimdin o'shal Ibrohim Adhamdek,
 Chaqirgaymu gadolikka qiyomat kun talabgorim?
 Firoqi Layli birlan yig'lasam monandi Majnundek,
 Kelib holimni so'rganmu o'shal kun joduvash yorim?
 Iloho, Mustafoni hurmatidin kech gunohimni,
 Haziniy osiyman, avf et, xatoga ketsa guftorim.

* * *

Mani majnun hamisha yor uchun xunobalar yuttum,
 Bo'lub ovoralar, dildor uchun xunobalar yuttum.
 Firoqida o'tub umrum, tuyassar bo'l madi aslo,
 Hama mehnatlarim bekor uchun xunobalar yuttum.
 Bo'lub Majnunga monand, dashtu sahroda chekib g'urbat,
 Visoli Laylig'a man zor uchun xunobalar yuttum.
 Qalam yozgan ekan, ro'zi azalda manga kulfatni
 Ki taqdiri azalda, yor uchun xunobalar yuttum.
 Mashomimg'a yetushmas bo'y i rohat, turfa hayronman
 Ilojin topmayin, hayron uchun xunobalar yuttum.
 Bu olamg'a kelib, bir lahma surram bo'l madi ko'nglum,
 Falakni kulfati bisyor uchun xunobalar yuttum.
 G'amu hasratlarimni fosh etay deb, ey birodalar,
 Haziniy, bir necha ash'or uchun xunobalar yuttum.

Xonqizu Chimyonda holo Toji birla Tojixon,
 Balki olam nchra tanho Toji birla Tojixon.
 Ul Qarovultepalik, Honqiz holo maskani,
 Jo'ra ul qo'zig'a uko, Toji birla Tojixon.
 Lablari la'l Badaxshon, tishlari durri Adan,
 Xushtakallumlikda go'yo Toji birla Tojixon.
 Qudrati bilan musavvir, ulki chekmish suvratin,
 Dilrabolar ichra barno Toji birla Tojixon.
 Bir ajab mahbubaye, ma'shuqlardin benazir,
 Bo'limg'ay yor muncha zebo, Toji birla Tojixon.
 Ko'rsa zohidlar agar, taqvo yaqosin chok etib,
 Solgusi boshiga savdo Toji birla Tojixon.
 Qoshlarin ko'rgan kishi aylar gumon yangi hilol,
 Ohubarra, chashmi shahlo Toji birla Tojixon.
 Iqlimi Farg'ona Zuhrodin toparmish tarbiyat,
 Bul sabab hamtosi Zuhro, Toji birla Tojixon.
 Ota birlan onasi kim, qayda desa joyingiz,
 Bo'lisi Oqilg'a fuqro Toji.birla Tojixon.
 Dilrabolar suhbatin toptum, aduvsiz topmadim,
 Bul Hazinni qildi shaydo Toji birla Tojixon.

Qadrimga yetmas bir necha nodon,
 Aylar jafolar bizlarga chandon.
 Vola bo'lubman guldek yuziga,
 Misoli bulbul qilurman afg'on.
 Lozim emasmi bizlarga shafqat,
 Arzimni aytay, yorimni ko'rgon.
 Dodimga yetsun ul sho'xi zolim,
 Boshig'a tushsun, gar bo'lsa oson.
 Ohim tutuni olamni tutgay,
 Gar kelsa rahming, chiqmay turub jon.
 Shod aylagaymu suygan qulini?
 Bo'lgay raqiblar yer birla yakson.
 Xam bo'ldi qaddnm hasrat yukidin,
 Bir yo'qlamaydur kulfatga solgon.
 El ichra bo'ldum majnuni behud,
 Kuydurgay ohim dashtu biyobon.
 Nodonlig'imdin domig'a tushtum,
 Haziniy yanglig' bormu adashgon.

Jahonda man kabi do'stlar, zalilu xor bo'lg'aymu,
 Bu g'am girdobida mandek dili afgor bo'lg'aymu.
 Davom hasrat aro qolgan, yana har kechayu kunduz,
 Bu olam ichra mandek ko'zлari xunbor bo'lg'aymu.
 Man emdi qaysi bir dardimni elga aylayin izhor,
 Tuganmas dardga qolgan bir maningdek zor bo'lg'aymu,
 Chunon g'ambodadurman, bir dam oromu qarorim yo'q,
 Bu ko'ngul ovlagudek bir dili xushyor bo'lg'aymu.
 Falak boshimga soldi yuz tuman jabru jafolarni,
 Qani, shul vaqtarda sohibi asror bo'lg'aymu.
 Dilim bo'ldi xarob, har lahza g'am ham izardi,
 Yurogim g'ilu g'ashdin yo'q qilurga yor bo'lgaymu.
 Agar yodimga tushsakim, bo'lurman misli Majnundek
 Ki, bir Layli g'amida man kabi bir xor bo'lg'aymu.
 Qilurman tun-saharlar to'ti yanglig' ohu afg'onlar,
 Yuzum chun za'faron yanglig' hamisha zor bo'lg'aymu.
 Xudovando, Haziniynnng gunohin mag'firat aylab
 Ki, doxil jannati "in tahtah al-anhor" bo'lg'aymu.

Siz ani odam demang, ko'nglida himmat bo'lmasa,
 Balki imoni xatarlik, anda g'ayrat bo'lmasa.
 Kimki johildur, biling, hamdu sanoda xordur,
 Mo'mini sodiq emas ul, tanda jur'at bo'lmasa.
 Qoni bo'lsa qatra nayson gar, sadaf durr bo'lg'usi,
 Badnihode qolgusi, anda qanoat bo'lmasa.
 Hotami Toy kofir erdi, kuymadi do'zaxda, bil,
 Kuydurur erdi egam, anda saxovat bo'lmasa?

Fonyi dunyodin lahadga dastxoli bormagil,
 Na qilur xoliq sani, tuhfang ibodat bo'lmasa?
 Jon berar vaqtida shaytondin o'zing qil ehtiyot,
 Bandalik noming g'alat, imon salomat bo'lmasa?
 Xalq aro rasvo bo'lubman deb, Haziniy, g'am yema,
 Yetmagay hech kim salomatga, malomat bo'lmasa?
 * * *

Hijron o'tig'a bag'rim so'zona tong otquncha,
 Urtab yuragim, jismim biryona tong otquncha.
 Man Vomiq-u Uzro - san, vaslingga yetolmasdin
 Har kecha qarorgohim ostona tong otquncha.
 Rahm ayla bu holimg'a, ey ko'zлari xumorim,
 Hajringda bu ko'ngullar vayrona tong otquncha.
 Hech kimg'a deyolmasman bu arz ila holimni,
 Qong'a jigarim to'ldi giryona tong otquncha.
 Xilvatda agar ko'rsam, sirrimni bayon aylab,
 San birla bo'lay anda hamxona tong otquncha.
 Axshomda jamolingni sham'inu munavvar qil,
 Aytay sanga holimni, parvona tong otquncha.
 Naylayki, ilojim yo'q, har ko'chada yig'larman,
 Tor o'ldi Haziniyg'a Farg'ona tong otquncha.
 * * *

Ey banda, xudo yo'lida toatni unutma,
 Ro'zu shabu har lahza, ibodatni unutma.
 Jon boricha izlab, tunu kun haqni rizosin,
 Albatta, birodar, bu nasihatni unutma.
 Bu fonyi jahon ayshig'a mag'rur bo'lubsan,
 Diyordi xudo birla u jannatni unutma.
 Ming yil yashasang, oxiri bir kun o'ladursan,
 Oxir bo'lsan, xoki mazallatdga unutma.
 Hech kimg'a vafo qilmadi, dunyon ni bilursan,
 Sango keladurgon u kun, navbatni unutma.
 Ey odamiyzod, aslingu nasling sani tufroq,
 Yalg'uz yotar birla qiyomatni unutma.
 Shukr ayla, Haziniy, sani olamg'a kelturdi,
 In'omi xudo, rizq ila ne'matni unutma.
 * * *

Umidim shul qiyomatda, shafoat osiy ummatga,
 Ushal ro'zi alomatda, shafoat osiy ummatga.
 Lahaddin bosh ko'targay, avvalinu oxirin ul kun,
 Turar barcha nadomatda, shafoat osiy ummatga.
 Hama go'r boshida yig'lab, kafan bo'ynida o'lturgay,
 Oshib vahmi nihoyatda, shafoat osiy ummatga.
 Maloik odam o'g'lini so'rар sahroyi mahsharga,
 Turarlar anda hasratda, shafoat osiy ummatga.
 Tarozug'a solib a'molimizni, anda ko'rsatgay,
 Qolib vahmu xijolatda, shafoat osiy ummatga.
 Xudo qozi bo'lub, so'rsaki bizdin neku badlikni,
 Turub taxtiadolatda, shafoat osiy ummatga.
 Haziniy, shukr qilsa har kishi, Ahmadga ummatdur,
 Jahim ahli shaqovatda, shafoat osiy ummatga.
 * * *

Xudoni yodi birla yig'lagil shomu saharlarda,
 Yaqongni chok etib, san yig'lagil shomu saharlarda.
 Fig'on aylab, gunohing vahmidin qo'rquq, nadomat qil,
 Alam o'tig'a bag'ring dog'lagil shomu saharlarda.
 Ayo tolib, o'zingni tashlagil haqni rizosig'a,
 Riyozat po'tasini bog'lagil shomu saharlarda.
 Ayo, ey bexabar odam, o'lumni yod qilmassan,
 Ketib xeshu taboring, o'ylagil shomu saharlarda.
 Sirot ul-mustaqim otlig' yo'lungda bir xatar bordur,
 O'tarni, ey birodar, ko'zlagil shomu saharlarda.
 Jahannamni azobidin o'zingni qutqaray desang,
 Tilingni ma'siyatdin saqlagil shomu saharlarda.
 Iki olam murodig'a yetay deb orzu qilsang,
 Haziniy, rohi Bag'dod ko'zlagil shomu saharlarda.
 * * *

Misli Majnui Laylidek devona bo'lsm koshki,

Yer uchun olam aro afsona bo'lsam koshki.
 Dayr aro piri mug'on, man telbaga sunsa sharob,
 Bodano'shini, sokini mayxona bo'lsam koshki.
 Jomi vahdatda muhabbat sharbatidin no'sh etib,
 Mast o'lub. idrokkin begona bo'lsam koshki.
 Shibliydek raqs aylasam har ko'chayu bozor aro,
 Ishq o'tig'a o'rtanib biryona bo'lsam koshki.
 Mulku ashyodin kechib ketsam, yoronlar, benishon,
 El ko'zidin bir yo'li pinhona bo'lsam koshki.
 Zarracha qilsa tajalli, tangri diydorin ko'ro'b,
 Toqat etmay Turdek so'zona bo'lsam koshki.
 Kimki daryoyi muhabbatg'a cho'mar, g'avvosdur,
 Man, Haziniy tolibi durdona bo'lsam koshki.
 * * *

Ul sho'xi sitamgarlar hajrida ado qildi,
 Hasrat yukini ortti. qaddimni duto qildi.
 Mug'bacha sharobidin bir kosa to'lo ichtnm,
 Avvalda qilib bexud, aqlimni ko'to qildi.
 Shibliyni ko'ring, do'stlar, no'sh etti sharobidin,
 Boshi qizishib, ul dam raqs ila simo qildi.
 May ichsalar oshiqlar, zohid qiladur ta'na,
 Mansur kabi orifg'a yuz javru jafo qildi.
 Ishq lashkari qasd etsa, holingni xarob aylar,
 Adham kabi shahlarni oxirda gado qildi.
 Ut ayla vujudingni ishqida samandardek,
 Sham' mavjig'a parvona jonini fido qildi.
 Rahm etmadi Yusufg'a, Kan'onda nabi erdi,
 Baytul-hazan etmoqg'a Yusufni judo qildi.
 Ilmingga havo qilma, toatga bino qo'yma,
 Ko'rdingmu takabburni, Shaytonni sivo qildi.
 Bir boqishi-la mahvash, qalbimg'a nazar soldi,
 Sayqal beribon dilni, ko'nglumni safo qildi.
 Botinda o'lub erdim, zohirda tirik ammo,
 Iso kelibon, Qum deb, haqqimg'a duo qildi.
 Dilxasta Haziniy, san har damda fig'on etma,
 Boshingga bu savdoni albatta Xudo qildi.
 * * *

Vafo qilmas jahon bizgaki, ul odam ato o'tti,
 Ko'ring, ikki jahonni sarvari ul Mustafo o'tti.
 Kecha-kunduz rasulullohni oldidin judo bo'lmas
 Abu Bakru Umar, Usmon, Aliyi Murtazo o'tti.
 O'lum changolidin oxir qutulmas jonu jonvarlar,
 Nechukkim, ul Hasan birlan Husayni Karbalo o'tti.
 Jahondin anbiyoyu avliyo yig'lab kecha-kunduz,
 O'turmiz, deb o'lumni vahmi birlan mubtalo o'tti,
 O'lumni dastidin, do'stlar, yurak-bag'rim kabob o'ldi,
 Nechukkim, keldi navbat bizga, ul ota-ano o'tti.
 Ko'ring, bu intizoru xastadir aylab Haziniyni,
 Yurub der darbadar doimki, umri bebahoh o'tti.
 * * *

Siza jon fido, yo hayot an-nabiy,
 Qilay man gado, yo hayot an-nabiy.
 Otingiz - Muhammad, rasuli xudo
 Ki, siz Mustafo, yo hayot an-nabiy.
 Ki, xayrul-bashar, sayyid al-mursalin,
 Risolatpano, yo hayot an-nabiy.
 Mani osiyini yetkurur ravzaga
 Qachon ul xudo, yo hayot an-nabiy?
 Tavof aylasam xonayi Ka'bani,
 Budur muddao, yo hayot an-nabiy.
 Qolay "Jannatul-Baqya" xokida man
 Ki, yetsa qozo, yo hayot an-nabiy.
 Hama ummatningiz umid aylashur
 Ki, ro'zi jazo, yo hayot an-nabiy.
 Haziniy duosi bo'lurmu qabul,
 Bu g'arqi guno, yo hayot an-nabiy?!

Murabba'lar
 * * *

Mustafoga dunyo vafo qilmadi,
 Zikriyoga dunyo vafo qilmadi,
 Anbiyoga dunyo vafo qilmadi,
 Avliyoga dunyo vafo qilmadi.
 Abu Bakru Umar, Usmon, Alini,
 Zuhra birlan Hasan, Husayn al valini,
 Oldi ajal barcha mursal-nabini,
 Murtazoga dunyo vafo qilmadi.
 Qayon ketti o'ttuz uch ming sahoba
 Kim, yuttilar hasrat birla xunoba,
 Dunyo erur bir raboti xaroba,
 Rahnomaga dunyo vafo qilmadi.
 G'av sul A'zam avliyolar rahbari,
 Ul Muhammad ummatini g'amxori,-
 Masihogha jon bag'ishlar guftori,
 Muttaqoga dunyo vafo qilmadi.
 Tohirni ko'r, Zuhroga dil bog'ladi,
 Ishq o'tig'a yurak-bag'r'in dog'ladi,
 Tig' ustida o'lmoqlig'in chog'ladi,
 Ul shahloga dunyo vafo qilmadi.
 Ul Mavlaviy Jomiy bilan Hamdamim,
 Mirzo Husayn der erdilar mahramim,
 Bahrom aytur, dilu jon-Gulandomim,
 Haziniyga dunyo vafo qilmadi.

* * *

Umid birlan kelibdurmiz ostonaga,
 Nazar soling bag'ri kuygan devonaga,
 Xonumonu molu jondin begonaga,
 Shoh Jalil, Podshoh pirim, madad qiling.
 Farg'onaning tarbiyati sizdan ermish,
 Har hojatmand murodini tilab kelmish,
 Ziyoratga kelib, bunda yig'lab turmish,
 Shoh Jalil, Podshoh pirim, madad qiling.
 Shafqat qiling har talabda kelganlarga,
 Kelolmayin bemor bo'lub yotganlarga,
 Nazar soling bir yo'l kelib ketganlarga,
 Shoh Jalil, Podshoh pirim, madad qiling.
 Har kim kelsa ixlos birlan, navmid ketmas,
 Umidim ko'p, shu bandaga gunoh bitmas,
 Inshoolloh, ikki dunyo xor anlamas,
 Shoh Jalil, Podshoh pirim, madad qiling.
 O'z ismingiz xalq ichinda Shoh Jalil,
 Olib kelgan sabza bargi bizga qalil,
 Yozib kelgan risolangiz bizga dalil,
 Shoh Jalil, Podshoh pirim, madad qiling.
 Bobongizdur Madinada haq Mustafo,
 Muttakongiz Usmon kabi koni hayo,
 Haziniydur g'ulomingiz ojiz gado,
 Shoh Jalil, Podshoh pirim, madad qiling.

* * *

Olam aro yozding ani shuhratin
 Sanga yaqin kimki tutsa millatin
 San suyarsan beshak ani ummatin,
 Rahmatingdin bizni raho qilmag'il.
 Abu Bakru Umar, Usmon, Alini,
 Soqiy etting kavsaringga Alini,
 Bizga rahbar qilding shundog' nabini,
 Hurmatidin bizga jazo qilmag'il.
 Hasan-Husayn, Xayrunniso hurmati,
 Bandam degil, kull anbiyo hurmati,
 Avliyoyi ahli rizo hurmati,
 Haziniyg'a fardo jazo qilmag'il.
 Bir yor uchun tongla rasvo qilmag'il,
 Sharmandayi ro'zi jazo qilmag'il,
 Nomasiyah, vohasrato qilmag'il,
 Tongla safi qavmi tarso qilmag'il.
 Mustafoni bizg'a qilding payambar,
 Shafqatlari biz osiyg'a barobar,

Ummatlarg'a pushtu panohi mahshar,
Rasulingni bizdin judo qilmag'il.
Muxammaslar
* * *

Ikki olamda erursiz osiylargaga rahnamo,
Rahmatan-lil-olamin, deb ko'z tatar ro'zi jazo,
Qabringizda mavj urodur, rahmati nuri xudo,
Har kishi qilsa ziyyarat, dardiga topgay davo,
Ravzayi pokingga keldim, yo rasuli Mustafo.
Bir nazar qilgilib mango.Odam safiyni hurmati,
Ham Halili bosafo, Nuhi nabini hurmati,
Ham Abu Bakru Umar, Usmon, Alini hurmati,
Yuz yigirma to'rt ming o'tgan nabini hurmati,
Ravzayi pokingga keldim, yo rasuli Mustafo.
Tanda-jismimda imon, shoista qilgilib tavbagi,
Ul umid birlan borib boshimni ursam ravzag,
Hazrati Odam duosi bo'ldi maqbul Ka'baga,
O'lmasidin bul Haziniykim, boribdur Baqyaga,
Ravzayi pokingga keldim, yo rasuli Mustafo.

* * *

Voy, xor o'ldi shariat, dinimiz bo'ldi g'arib,
Bu nechuk turfa alomat, dinimiz bo'ldi g'arib,
Ye yaqindurmali qiyomat? Dinimiz bo'ldi g'arib,
Ko'p rivoj oldi sharorat, dinimiz bo'ldi g'arib,
Barchadin ketti adolat, dinimiz bo'ldi g'arib.
Tavba denglar, ey birodalar, turub shomu sabo,
Aylashib zoru tazarru'lар, tilang haqdin pano,
Doimo toat-ibodatda bo'lub, aylang duo,
Shoyad etsa rahm rabbim podshoh, bizlar gado,
Jurm etib, qilmay nadomat, dinimiz bo'ldi g'arib.
Xonaqoda zikri haq mone', sharorat oshkor,
Barcha nokaslar hukumatda sayiddur, xoja xor,
Kimda dunyo bo'lsa, holo xalq ichra e'tibor,
Olimu shayxi zamon xilvatda yig'lar zor-zor,
Jorii bo'lmasdin shariat, dinimiz bo'ldi g'arib.
Yaxhilarga sabr qilmakdin bo'lak yo'qtur iloj,
Bu na mushkuldu, musulmonlar berur mushrikka boj,
Turmayin Farg'ona ichra emdi, Baytulloga qoch,
Jurm etib, qilmay nadomat, dinimiz bo'ldi g'arib,
Har qayonda bo'lsa, donolarni holo bag'ri qon,
Bu falak raftori kaj dastidin aylarlar fig'on,
Qo'l yaqoda, tavba deb aylang .yana piru javon,
Bexabar turma, Haziniy, anqarib oxir zamon,
Vodarig'o, bu na hikmat, dinimiz bo'ldi g'arib.

* * *

Mubtalolar nolasini tun sahar, yorim, eshit,
Kechalar hajring bilankim aylagan zorim eshit,
Man nisor aylay yo'lingda yo'q ila borim, eshit,
Misli San'on bog'lag'on bo'ynumda zunnorim, eshit,
Hasratingda yig'laram doim shabi torim, eshit.
YoSh to'karman ko'zlarimdin Nuhni to'fonidek,
Misli Yahyodek biyobonda Shuayb cho'ponidek,
Yusufim deb yig'lasam chun Ya'qubi Qan'oniydek,
Avvalida qul bo'lub, ohir Misr sultonidek
Bir kaloba if bilan bo'lgan xaridorim, eshit.
Zikriyodek haq qazosig'a rizo bo'lsammukin,
Misli Musodek xudoyimg'a navo qilsammukin,
Baliki Jirjisdekk aduvlar dastida o'lsammukin,
Necha o'lturgon bilan o'lmay, tirik tursammukin,
Shahrmu hoil, shahidin tortgon ozorim eshit.
Chilla o'ltursam nahangni batnida Yunusdekk,
Ulmayin jannatga kirsam man o'shal Idrisdekk,
Shoh bo'lsam olamda Iskandaru Kovusdekk,
Intizor etsam Sulaymong'a yana Bilqisdekk,
Osaf ibni Burxiyo kelg'uncha xummorim, eshit.
Ul Safiyullohdekk, yo rabbano, deb yig'lasam,
Hazrati Ayyubdekk haqnn rizosin ko'zlasam,
Yo Halilullohdekk o'g'lumni qurban aylasam,

Mustafodek Makkadin chiqsam, Madina ko'zlasam,
Bu Haziniy turmoqa bu yerda nochorim, eshit.

Bahaqqi Odamu Havvo, xudoyo, dingga quvvat ber,
Ayo, Sattori behamto, xudoyo, dingga quvvat ber,
Tufayli Idrisu Muso, xudoyo, dingga quvvat ber,
Erursan qodiri yakto, xudoyo, dingga quvvat ber
Ki, barcha sirridin ogoh, xudoyo, dingga quvvat ber.
Musallat aylading Nuhi nabini qavmiga to'fon,
Nigin berding Sulaymong'a, jahonda aylading sulton,
G'azab qildingki, bo'ldi Lut qavmi lahzada yakson
Ki, harna aylamoqlik qudratingni oldida oson,
O'zingsan xoliqi ashyo, xudoyo, dingga quvvat ber.
Bahaqqi Yusufu Ya'qubi nobino tufaylidin,
O'shal Ayyubi dono, Zikriyo, Yahyo tufaylidin,
Duoni mustajab etgil raSululloh tufaylidin,
Qazog'a rozilik bergen Zabihulloh tufaylidin
Ki, yo rab, hurmati Iso, xudoyo, dingga quvvat ber.
Karam aylab, nahangni batnida Yunusg'a jo berding
Ki, qirq kun qudrating birla qanotdin g'izo berding,
Xalilnn dushmanig'a pashshayedin ko'p jazo berding,
G'azabni shu'lesi jo'sh urdi, qavmiga balo berding,
Murodim shulki, ma'budo, xudoyo, dingga quvvat ber.
Shafi' qildim tamomi ruhi poki anbiyolarni,
Jahonda avvalu oxirda o'tgan avliyolarni,
Habibing ummatimiz, hurmatidin kech gunolarni
Ki, rahmat etguchi Rahmon, qabul qilg'il duolarni,
Haziniy arzi shul sango, xudoyo, dina quvvat ber.

Ul shariat mazhari ro'yi g'ubor o'ldi, darig',
Ketti holo ravaraqi islom, xor o'ldi, darig',
Qozilar hukmi, ajab, bee'tibor o'ldi, darig',
Zikri haq mone', sharorat oshkor, o'ldi, darig',
Yaxshilarga turgali Farg'ona tor o'ldi, darig'.
Kimni imoni qaviy bo'lса, o'shal hijrat qilur,
Ul Madina shahriga borsam, debon niyat qilur,
Ravzayi payg'ambarimni oldida xizmat qilur,
Zindalikda o'lmayin ul joyini jannat qilur,
Ba'ziga bormas bahona ravzaga o'ldi, darig'.
Mardu zan, yoshu qarida qolmadi sharmu hayo,
Bu sababdin boshimizga yog'ilur turluk balo,
Kim erur sohibhukumat, shevadur ango g'izo,
Bebizoat xordur, izzatda holo ag'niyo,
Ba'zilar dunyo uchun dindin guzor o'ldi, darig'.
Dinimiz bo'ldi g'arib, bu xalq holo bexabar,
"Ko'p alomatlar bo'lub o'tgay", - dedi, - xayrul-bashar
Kim, hadisi Mustafo chun "Qulli yavmindur batar",
Deb edi, "Ummatlarim dunyo uchun dinin sotar",
Pul uchun mushriklara mo'min qaror o'ldi, darig'.
Tavba denglar, ey birodarlar, turub shomu sahar,
Qo'l ochib qilsang duo, bergay xudo dingga zafar,
Na alomat, na qiyomat, necha yo'l kuydi qamar,
Turma bu yerda, Haziniy, ravzaga qilg'il safar,
Anqarib Dajjol xar uzra suvor o'ldi, darig'.

Tiyra dilimni ravshanisiz, ro'shno kelng,
Aftodalarni so'rgali bir, oshno, kelng,
Holi tabohning qoshig'a mushkilkusho kelng,
G'urbatkashida qullara, ey dilkusho, kelng,
Vaqti iyodatin so'rabs, kulbam kusho, kelng,
Man tashnaman visolinga, san, yor, qaydasan?
Ko'nguldagi dardu g'amming ag'yorga aytasan,
Utlik sharobini berib kuydursa, qaytasan?
G'urbatkashida qullara, ey dilkusho, kelng,
Vaqti iyodatin so'rabs, kulbam kusho, kelng.
Sabru qarorim qolmadi, yo'lingda ko'z tutub,
Umrum ichinda doimo ishqing bilan o'tub,
Tig'i sitamlaring mani jonimg'a qasd etub,

G'urbatkashida nullara, ey dilkusho, keling,
 Vaqt iyodatin so'rab, kulbam kusho, keling.
 Zarra tarahhum etmading, ey sho'xi pursitam,
 Ro'zi azalda yozmishi chun kotibi qalam,
 Yo'qlamasang Haziniyni, yuz dardu ming alam,
 G'urbatkashida nullara. ey dilkusho, keling,
 Vaqt iyodatin so'rab, kulbam kusho, keling.
 * * *

Och yo'lum, yo rab, Madina soriga qo'ysam qadam,
 Ravzayi do'stung tavofini manga qilg'il karam,
 Hujrayi Ahmadni ummatga qilibsan muhtaram,
 Orzu aylab, hamisha yig'lasam man dam-badam,
 Ko'rmayin o'lsm, ketar ko'ksum aro ming dardu g'am.
 Avvalo qilsam iroda, sidqu ixlosim tuzib,
 Ayshu ishratlar bilan hoyu havaslardin bezib,
 Bu jahon nash'u namosidin taqi ko'ngul uzib,
 Ul habibing ishqida dashtu biyobonlar kezib,
 Misli o'lganlar kabi aylay vujudimni adam.
 Xorlik tortsam biyobonlar aro Adham kabi
 Kim, madadkorim bo'lub, yo'l boshlasa ruhi nabi,
 Ul Abu Bakru Umar, Usmon, madad qilsa Ali,
 Ro'siyah, sharmanda ummat, kel, desa hazrat mani,
 Jumla armonim ketib, ko'ksumda qolmasdur alam.
 Avvalo yo'lg'a qadam qo'yg'onda ehrom bog'layin,
 Tavbalar aylab gunohimg'a pushaymon aylayin,
 Haj qilib, Mino borib turganda chandon yig'layin,
 Muzdalifdin tosh otib, iblisni bag'rin dog'layin,
 Ul "Hajar asvat" ziyyorotin qilib, kirsam haram.
 O'lmayin yetsam, Madinaga borib, anda qolay,
 To hayotim boricha yig'lab yurib xizmat qilay,
 Har kuni marqadlarini girdidin ming o'rgulay,
 Gar qazo yetsa, Haziniy, ostoningda o'lay,
 "Jannatul-baqya" zaminidin nasib etsa egam.
 * * *

Yorlonlar, aytayin arzimki, hayron qildi Rahmonjon,
 Mani dog'i bilan har joyda sarson qildi Rahmonjon,
 Firoq o'ti bilan bag'rimni biryon qildi Rahmonjon,
 Mani aqlu hushim olib, parishon qildi Rahmonjon,
 Shu dam bizni, birodar, chashmn giryon qildi Rahmonjon.
 Tarahhum qilki, mahbubi xudoyimni vafosiga,
 O'shandog' Mustafoni ummati baxti qarosiga,
 Ilojim topmadim har dam yurogimni yarosiga,
 Borurman qayg'a emdi, do'stlar, dardim davosiga,
 Yaro bo'lg'on yurogimni qaro qon qildi Rahmonjon.
 Xudovando, mani qaroga mubtalo qilding,
 O'shandog' nozaninga na sababdin oshno qilding,
 Avvalda oshno aylabki, oxirda judo qilding,
 Visoliga yeturmay, bul mani motamsaro qilding,
 Ko'ngulni shahrini buzdiki, vayron qildi Rahmonjon.
 Ko'yingda xasta qul, bu chashmi giryoningga rahm etgil,
 Yo'lingda kecha-kunduz nola qilg'oningga rahm etgil,
 Qizil gul g'unchasidek rangi so'lg'oningga rahm etgil,
 Firoqingda o'lub, yuz ming tirilgoningga rahm etgil,
 Haziniyga jafolarniki chandon qildi Rahmonjon.
 * * *

Kimki haqqa bandadur, farmonidin ayrilmasun,
 Kecha-kunduz toati subhonidin ayrilmasun,
 Barcha mo'min rahmati rahmonidin ayrilmasun,
 Payravi Ahdam - shafoat konidin ayrilmasun,
 Jon berarda gavhari imonidin ayrilmasun.
 Haq taolo dedi do'stim tun-sahar bedorni,
 Va'da qildi onlara jannat ila diydorni,
 Haq suyar, qilsa saxovat banda harna borin,
 Rahmatidin benasib etgay chu dilozorii,
 Tongla rohat istagan ehsnidin ayrilmasun.
 Bu jahong'a kim kelibdur, bo'lmasun baxti qaro,
 Ushbu illatga kishini qilmasun haq mubtalo,
 Bu kasal hargiz tuzolmas, dorusi yo'q, bedavo,

Sud yo'q, ko'kdin tushib Iso ango qilsa duo,
 Rahmati haq doimo insomidin ayrilmasun.
 Odam o'g'lig'a ajal kelguncha yurgay bexabar,
 Oxiratni o'yamas, ko'nglida yo'q havfu xatar,
 Moli dunyoni yng'ushturgan bilan tashlab ketar,
 To qiyomat tongi otquncha hamon go'rda yotar,
 Hasrato birla o'tub, xandonidin ayrilmasun.
 Yoru do'stu aqrabolardin judo qilgan firoq,
 Hasratu anduh ilan qaddim duto qilgan firoq,
 Barchani xoki mazallat ichra jo qilgan firoq,
 Bir-biridin ajratib sohibazo qilgan firoq,
 Bu Haziniy, doimo suygonidin ayrilmasun.

Nazar sol osiy ummatga, tasadduq, yo Rasululloh,
 Hamisha kori g'aflatga, tasadduq, yo Rasululloh,
 Mani boshlang hidoyatga, tasadduq, yo Rasululloh,
 O'shal mahsharda jannatga, tasadduq, yo Rasululloh,
 Soling daryoyi rahmatga, tasadduq, yo Rasululloh.
 Yig'ilsa avvalu oxir o'shal sahroyi mahsharga,
 Xaloyiq ergashurlar barchasi hodiyu rahbarga,
 Tarahhum qil o'shal soat bizningdek osiy, muztarga,
 Borurmiz barcha tashna suv tilab soqiyi kavsarga,
 Berar ahli saodatga, tasadduq, yo Rasululloh.
 Xudo qozi bo'lub, tongla gunohimni hisob etgay,
 "Hama bandam mani qoshimg'a kelsun!" deb xitob etgay,
 Muhammadga kimikim ummat ermastur, azob etgay,
 O'shal kunni kishikim, o'ylasa doim, savob etgay,
 Yetar ummat sharofatga, tasadduq, yo rasululoh.
 Lahaddin bosh ko'targanda hama vohasrato derlar,
 Qiyomat shiddatidinkim hama vovaylato, derlar,
 Hama ummatlaring yig'lab yana yo Mustafo, derlar,
 Muhammad sajdaga boshin qo'yib, volumnato, derlar,
 Qolur ummat xijolatga, tasadduq, yo Rasululloh.
 Tarozug'a solur a'mol elini ul qiyomatda,
 Gunohidin savobi ko'p esa, albatta rohatda,
 Bihisht ichra kirar, huru qusur birlan farog'atda,
 Haziniy osiy ummat, saqlagil hifzu himoyatda,
 Qilay jonimni hazratga tasadduq, yo Rasululloh.

Aqrabolar furqatinda tanda jonio o'rtadi,
 Balki bu jonio quradigan ortuq ustixonim o'rtadi,
 Bu jigar-bag'rim kuyub, raglarda qonim o'rtadi,
 Chun firoqu hajrida ruhi ravonim o'rtadi,
 Sabr etib, man oh urub erdim, zabonim o'rtadi.
 Bu jahoni foniydin o'tti yoronlar, vodarig',
 Jondin ortuq bir necha piru javonlar, vodarig',
 Yoru do'stu hamnishin, xurdum kalonlar, vbdarig',
 Ketti qavm ila qarindosh ham eronlar, vodarig',
 Anbiyolar hajrida ohu fig'onim o'rtadi.
 Man alardin ayrib, ey do'star, devonaman,
 Aqlu hushu fahm ila idrokkin begonaman,
 Nolayu faryod qilib, man, naylayin, afsonaman,
 Bir o'zumdek ahli dardni topmayin hayronaman,
 Yig'lasam, ayb aylamanglar, xonumonim o'rtadi.
 Bu falakni koru bori, o'ylasam, javro' jafo,
 Kulli jonliklarga, fikr et, qilmadi hargiz vafo,
 Misli yo'l ostida qolgan knmsaga motamsaro,
 Bu raboti qo'hingga dil bog'lamoq ayni xato,
 Buzdi umrimni falak, andak zabonim o'rtadi.
 Yoru do'stu aqrabolardin judo qilgan firoq,
 Jondin ortuq oshnolardin judo qilgan firoq,
 Oshno, begonalardin ham judo qilgan, firoq,
 Ajratib xeshu taborlardin judo qilgan firoq,
 Naylayin, hajrida man, ruhi ravonim o'rtadi.
 Bu falakni jabridin hech yerga yetmas hasratim,
 Shod bo'lmay bir nafas, kundin fuzun qabziyatim,
 Dardu mehnat hamnishindur, ham jaholat ulfatim,
 Qo'hi g'am, dard ichra, naylaykim, bukuldi qomatim,

Ey Haziniy, qayg'ulik naylay, jahonim o'rtadi.

Fikr birla aylagil shafqat o'lumdin ilgari,
 Dargohiga aylagil xizmat o'lumdin ilgari,
 Jurm etgonnnga qil hasrat o'lumdin ilgari,
 Ro'zu shab tangriga qil toat o'lumdn ilgari,
 Manzilingni aylagpl jannat o'lumdin ilgari.
 Jon amonatdur jasad ichra, g'animat - zindalik,
 Tangriga purgirya bo'lgil, bo'lmagil ko'p xandalik,
 Ro'zi mahsharda shaqovat xalq aro sharmandalik,
 Haq taologa qilinglar zindalikda bandalik,
 Yelga dining bermagil - g'aflat, o'lumdin ilgari.
 Ey birodar, har kishi vaqtih sahar bedordur,
 Haq taolo, bil, o'shandog' bandasiga yordur,
 Toatimiz dilga jannat bilan diyordur,
 Haq taoloni rizosi sanga ko'p darkordur,
 Haq sani bandam desa, davlat, o'lumdin ilgari.
 Bu o'lum haq barchamizga, o'ylagil, ey oshno,
 Bil, nazar qilg'il, qayon keti! tamomi anbiyo,
 Bir nafas qo'ymas jahon ichra, agar yetsa qazo.
 Hasrato birla ketarsan, mulku ashyo bevafo,
 Ol go'ristonga borib ibrat o'lumdin ilgari.
 Pirga qo'l ber boriyozat, ketmaynn ostonadin,
 Pir misoli sham'i ravshan, ibrat ol parvonadin,
 Yodi haq birla bo'lub, saqla tiling afsonadin,
 Ket, Haziniy, ravzayi Ahmadga san Farg'onadin,
 Dam g'animat, aylagil hijrat o'lumdin ilgari.

Kulli ashyni egam qudrat bilan bor ayladi,
 Bandalarga bir necha sun'ini izhor ayladi,
 Ba'zini gumroh etib, ba'zini hushyor ayladi,
 Necha mursallar etib, mushrikni inkor ayladi,
 Kimki kim imoni yo'qtur, doxili nor ayladi.
 Odam o'g'lin yer yuziga nechasin sulton etib,
 Davru davron surdirib, ko'ngullarin xandon etib,
 Bu o'lumdin bexabar yurdi alar, javlon etib,
 Taxtu baxtini ajal bir kun ani vayron etib,
 Barchasin xoki mazallatga giriftor ayladi.
 Ba'zisin qildi g'aniy, bir nechani qildi g'arib,
 Dasti ko'tohlik bilan doim alar g'amga qarib,
 Bul jahondin o'ttilar javru jafolarni ko'rib,
 Munda yig'lab o'tguchi rohat ko'rар anda, borib,
 Bul jahonda yaxshilarni barisin xor ayladi.
 Kim g'arib bo'lsa agar, ko'nglida ko'p anduhu g'am,
 Doimo eldin yetar onlarg'a ham javru sitam
 Kim, jarohatdур yurogi barisi, ko'rsa alam,
 Bu falakdin boshiga kulfat yetodur dam-badam,
 Kotibi qudrat ani g'urbat bilan yor ayladi.
 Aksari odamg'a farzand bermadi hargiz xudo,
 Ba'ziga bergenini qo'y may yana oldi qazo,
 Ona birla otasin qon yig'latib, qildi judo,
 Ushbu illatg'a kishini qilmasin hech mubtalo,
 Ey Haziniy, ba'zini farzand uchun zor ayladi.

To yetim bo'lmay kishi, bilmas atoni qadrini,
 Jonu dilda tarbiyat qilg'on anoni qadrini,
 Bilmagay hech kim ako birlan ukoni qadrini,
 Bir necha xeshu taboru aqraboni qadrini,
 Ajragay-bilgay ako birlan ukoni qadrini.
 Tandurustlik lazzatin bemor bo'lganlar bilur,
 Ko'p yotib, farzandlarig'a xor bo'lganlar bilur,
 Boshi yostiqda yotib afgor bo'lganlar bilur,
 Parchaye non qadrini ko'p zor bo'lganlar bilur,
 Qimki man-manlikda, bilmaydur g'izoni qadrini.
 Do'stu dushman, har kishi, begona, xohi oshno,
 Qochhusi boshingga mushkil tushsa, sandin bevafo,
 San uchun ul bevafo ulfat qilurmu jon fido,
 Do'st qadrii bilmagay, boshig'a .tushmasdin balo,

Qariyu a'mo bo'lub, bilgay asoni qadrini.
 Qo'lida moling borida begonalardin yor ko'p,
 Davlating ketsa agar, dildordin ag'yor ko'p,
 Ham qadimiy hamnishinlardin sango ozor ko'p,
 Suhbatingdin ihtiroz aylab yana bezor ko'p,
 Mardumi Farg'ona bilgay ag'niyoni qadrini.
 Bul jahonda ba'zilarni ayladi tirnoqqa zor,
 Ba'zilarga xoliqim farzand berdi beshumor,
 Ba'zini qildi aziz, bir nechalarni qildi xor,
 Harna qilsa holiqim, shukr aylagil layli nahor,
 Bil, Haziniy, sidq ila shukri xudoni qadrini.
 * * *

Imom ul dam turub, yig'lab, Ilohim rabbano, deydi,
 Muni "Nahnu qayemano"da mango yozgan xudo, deydi,
 Eshitinglar, bilinglar bu so'zimni, ey ag'o, deydi,
 Bu yerni otini so'rsam bu dashti Karbalo, deydi,
 Husayn aydi, aziz jonim bo'lur munda judo, deydi.
 Bu so'zni eshitib, yig'lashti anda barcha yoroni,
 Eshitti elu avlod, ulug'-kichik ham o'g'loni,
 Bu yer er mish, ekandur odamini to'kulur qoni,
 Tong otquncha yig'i birlan dedilar, voy, esiz joni,
 Xudoyo, choramiz yo'qtur, bu darda na davo? deydi.
 Ko'rushub, yig'ladilar dam-badam bir-birlari birlan,
 Rizolik tilashib har birlari ko'ngullari birlan,
 Qachon parvoni bor ahlu ayol, o'g'ullary birlan,
 Qiyomat sho'rshpi bo'ldi, hama o'z-o'zlari birlan,
 Guman yo'qtur, ayo do'stlar, hama kori xudo, deydi.
 Vatandin ayrilib, emdi g'ariblik yo'lida qoldim,
 Ishimiz o'ng kelodur deb, valekin so'lida qoldim,
 Imom uchun, bilinglar, Karbaloni cho'lida qoldim,
 Azalda bu ekan qismat, Yazidni qo'lida qoldim,
 Yig'i qilmoq kerak, do'stlar, hama kori xudo, deydi.
 Tong otquncha alarni pshlari anda yngn bo'ldi,
 Iig'i birlan tong otturdn, Haziniy, yuzlari so'ldi,
 Vatandin ayrilib, barcha yuraklar g'ussaga to'ldi,
 Qazog'a rozi bo'ldilar, atodin ilgari o'ldi,
 Hama yoronlari yig'lab, Husayi uchun xudo, deydi.

* * *

Ey yoronlar, g'am bilan man xoru zor o'ldum, netay,
 Bo'lmayin xurram, jahonda dilfigor o'ldum, netay,
 Xasta, mahzunlikda qoldim, oshkor o'ldum, netay,
 Dard tortmoqliqg'a, do'stlar, beqaror o'ldum, netay,
 Dilraboni ko'rmoqa bo'ldim xumor, o'ldum, netay.
 Misli Majnundek firoqi Laylida ovoraman,
 Qo'hkan yanglig' Shirinni hajrida dilporaman,
 Ostoning yostonib Vomiq kabi bechoraman,
 Hamchu Tohirkim qazoni dastida ovoraman,
 Yorni vaslig'a yetmoqg'a o'lor o'ldum, netay.
 G'ammi zindonida qoldim, bormikin mango najot?
 Shoyad ul bitgaymukin rahm aylabon, xatti barot,
 Chiqmayin o'lsam, fano chohida chun topsam vafot,
 Shoh Xusayndek tashna bo'lsam, ichmayin obi Frot,
 Shamr mal'un dastida qonim to'kor o'ldum, netay.
 Bormukin dunyoda hech kim man kabi g'amga qarib,
 Tah-batah qondur yurogim, bir kishi ko'rsa yorib,
 Xasta holimni ko'rub, rahm etmadni hoziq tabib,
 Dil yarosini ilojin qilmadi marham qo'yib,
 G'ussa birlan oh urub, jondin guzor o'ldum, netay.
 Misli Adham taxtu baxtim tashlabon ketsammukin,
 Tog'u cho'llarni kezib, baytul-haram borsammukin,
 Mustafoni ravzasini haj qilib kelsammukin,
 Ostoning yostonib, g'aflat qilib yotsammukin,
 Xalq aro rasvo, Haziniy, sharmisor o'ldum, netay.
 Musaddaslar
 G'anguzore bul jahon, bir-bir ketarni o'ylasun,
 Yurmasun yalg'uz, kishi rohi xatarni o'ylasun,
 Vaqt yetganda amonatni tutarni o'ylasun,
 Bul qaro yer barchani bir-bir yutarni o'ylasun,

Hasrato, vovaylato birlan ketarni o'ylasun,
 Har kishi yer ostida yalg'uz yotarni o'ylasun.
 Moli dunyoni yig'ushturgan bilan bir kun qolur,
 Jon amonatdур kishiga, oxiri bir kun olur,
 Ko'p xaloyiq mol uchun o'zini kulfatga solur,
 Har kishi dunyoga keldi, bilsangiz, oxir o'lur,
 Hasrato, vovaylato birlan ketarni o'ylasun,
 Har kishi yer ostida yalg'uz yotarni o'ylasun.
 Anbiyoyu avliyolar o'lmayin qolgoni yo'q,
 Qullu nafsin zoiqatul-mavtni bilgoni yo'q,
 Barcha ketganlar bu dunyoga taqi kelgoni yo'q,
 Qaysi soat jon berorini kishi-bilgoni yo'q,
 Hasrato, vovaylato birlan ketarni o'ylasun,
 Har kishi yer ostida yalg'uz yotarni o'ylasun.
 Bandalik qilg'il tiriklikda, g'animatdур nafas,
 Kecha-kunduz yig'lamoqni, ey birodar, qilma bas,
 Ushbu dunyo ishlari, behudadur hoyu havas,
 Jon misoli andalibdur, bu jasad misli qafas,
 Hasrato, vovaylato birlan ketarni o'ylasun,
 Har kishi yer ostida yalg'uz yotarni o'ylasun.
 Ushbu dunyodin guzar qildi o'shal Odam ato,
 Shish payg'ambar ila Nuhi nabi, vohasrato,
 Ham yana Ibrohimu Ismoilu ham Zikriyo,
 Mustafa ketti, Haziniy yig'ladi "vo ummato",
 Hasrato, vovaylato birlan ketarni o'ylasun,
 Har kishi yer ostida yalg'uz yotarni o'ylasun.

Ko'ngulni, ey birodar, bog'lama dunyoga, hijrat qil,
 Tiriklik, bil g'animat, turmayin uqboga hijrat qil,
 Bino qo'yma imorat mulk ila ashyoga, hijrat qil,
 Kechib, Farg'ona mulkini berib tarsoqa, hijrat qil,
 Olib ahlu ayoling, emdi Baytulloga hijrat qil,
 Madina - ravzayi poki rasululloga hijrat qil,
 Tugandi emdi dunyo, ey birodarlar, bo'ling ogoh,
 Dari tavba yopilmay, ketma-sang holingga vovaylo,
 Xuruji qoldi emdi Mahdiyu Dajjal ila Iso,
 Olib ahlu ayoling, emdi Baytulloga hijrat qnl,
 Madina - ravzayi poki rasululloga hijrat qil.
 Hama shug'l ayladi holo zino birlan sharoratga,
 Xudoga bandaman, derlar bo'yun sunmay ibodatga,
 Kerak hijrat qilish payg'ambarim yotgan viloyatga,
 Yaqin turmoq uchun yetgay qiyomatda shafoatga,
 Olib ahlu ayoling, emdi Baytulloga hijrat qil,
 Madina - ravzayi poki rasululloga hijrat qil.
 Saydu xoja, mullo, yaxshilarga zarra hurmat yo'q,
 Faqirlarning dilida zarracha sabru qanoat yo'q
 Ki, ustoz birla shogird ham muriddin pirga xizmat yo'q,
 Nechuk hikmat, Haziniy, xonzqolar ichra suhabat yo'q,
 Olib ahlu ayoling, emdi Baytulloga hijrat qil,
 Madinab"ravzayi poki rasululloga hijrat qil.

Gunohimni, xudoyo, ro'zi mahsharda hisob etma,
 Juhudu gabru tarsolar qatorida azob etma,
 Jahannam otashig'a kuydurub, jismim kabob etma,
 Sango qildim tazarru', noumid aylab itob etma,
 Uzing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma,
 Bu dorul-mulkni Toshkand, Andijon yanglig' xarob etma.
 Tufayli hazrati Shohi Jalil - avlodи payg'ambar,
 Abu Bakru Umar, Usmon, bahaqqi soqiyi kavsar,
 Shafi' qildim ikki shahzodani, qahr etmagil yaksar,
 G'azab qilg'aymukin bizlarni ham, chun barchamiz muztar,
 Uzing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma.
 Bu dorul-mulkni Toshkand, Andijon yanglig' xarob etma.
 Ki, sandin qo'rqlayin bir necha odam haddidin oshti,
 Ziroat o'rniq'a el ma'siyatlar tuxmini sochti,
 Gunah daryosi mavj urdi, jahon ichra to'lub toshti,
 Balo boshig'a kelg'unucha xaloyiq turfa ko'p shoshti,
 Uzing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma.

Bu dorul-mulkni Toshkand, Andijon yanglig' xarob etma.
 Xatosi haddin oshtiki, Lut qavmini yer yutti,
 Ushal Nuhi nabini ummati to'fon bila ketti,
 Muhammad ummatig'a bu alomat fe'lidin yetti,
 Gunohi ko'pligidin xolnqim bu yerni tebratti,
 Uzing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma.
 Bu dorul-mulkni Toshkand, Andijon yanglig' xarob etma.
 Ko'rub mundog' alomatni, g'aniylarda saxovat yo'q,
 Faqirlarni dilida zarracha sabru qanoat yo'q,
 Zamona shayxlarida xolsanlillah ibodat yo'q,
 Riyo toat qilur xalq ichra, xilvatda riyozat yo'q,
 Uzing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma,
 Bu dorul-mulkni Toshkand, Andijon yanglig' xarob etma.
 Yaratting kulli ashyni o'zing bir "kof"u "nun" birlon
 Ki, harna aylamoqlig' qudratingni oldida oson,
 G'azab qilsang, qilursan barchasini yer bila yakson
 Ki, Sattor ul-uyub isming, shafi' ettim bukun, Rahmon,
 Uzing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma,
 Bu dorul-mulkni Toshkand, Andijon yanglig' xarob etma.
 Habibing hurmatidin ummatin kechgil gunosini,
 Uzing avf etmasang, mushkul erur qilg'on xatosini,
 Talab qilg'on gadoga dargahingdin muddaosini,
 Xudovano, qabul etgil Haziniy iltijosini,
 Uzing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma,
 Bu dorul-mulkni Toshkand, Andijon yanglig' xarob etma.
 * * *

Bu fonyi dunyodin jumla payambar ketti, kim qoldi,
 Xususan ul Muhammad toji mahshar ketti, kim qoldi,
 Shafoatxohimiz olamga sarvar ketti, kim qoldi,
 Abu Bakru Umar, Usmonu Haydar ketti, kim qoldi,
 Hasan birla Husayn xunin jigarlar ketti, kim qoldi,
 Hama labtashnaga soqiyi kavsar ketti, kim qoldi.
 Hamisha ostoni hazratimg'a boshini urgan,
 Tunu kun xizmat aylab, jonusi dilni haqqa topshurgan,
 Nabiynoni muborak yuzlarini doimo ko'rgan,
 Rikob ushlab g'azoda, Shohimardon yonida turgan,
 Alini chokari, dunyoda Qanbar ketti, kim qoldi,
 Ochibon bobu Xaybar, sheri safdar ketti, kim qoldi.
 Ko'ring Aflatuni olamni ilmin aylagan tasxir,
 Arastu birla Suqrotu Sulaymon - shohi olamgir,
 Hazoron umr ko'rgan Zolu Luqmon ketti beta'xir,
 Ulumg'a qilmadilar shuncha hikmatlar bila tadbir,
 Dog'i No'shiravon, Jamhuri Ozar ketti, kim qoldi,
 Amir Hamza bila necha dilovar ketti, kim qoldi.
 Asar bormu o'shal Nuhi nabi, Ayyubi donodin,
 Xudodin roz eshitgan qo'hi Tur ustida Musodin,
 Nafas ta'sir qilg'on murdaga Iso - Masihodin,
 Jahon, olamga shuhrat hazrati Yusuf, Zulayhodin,
 Ushal Odam ato, Havvoyn modar ketti, kim qoldi,
 Yana Rustam bila Doro, Skandar ketti, kim qoldi.
 Ajal ilgida ketti, qolmadi ul shohi din Adham,
 Chin oshiq erdilar Farhodu Shirin, Layli, Majnun ham,
 Adam bo'lgay axiri hashr bo'lsa, oy bila kun ham,
 Valekin neku badni qabr ichidin chiqmag'ay un ham,
 Sahoba tobe'in Sultoni Sanjar ketti, kim qoldi,
 Jahon gulzoridin gul to sanubar ketti, kim qoldi.
 Yetib dastn ani Urganju Mavru toki Isfihon,
 Olur boju xiroj Chin, Shomu Qobul toki Hindiston,
 Farangu anglis ovozasidin qo'rqushub so'zon,
 Qolurmu bu jahon ichra ajalni dastidin bir jon,
 Shahanshohu salotin haftkishvar ketti, kim qoldi,
 Buxoro mulkidin Sulton Muzaffar ketti, kim qoldi.
 Qachon Farg'onada xonlar elidin Mallaxon o'ldi,
 Alardin so'ng qochib ba'zi, shariat, din yamon o'ldi,
 Ko'ringkim, bir-birini qatl etarg'a pahlavon bo'ldi,
 Haziniy, yaxshilar toqat qilolmay benishon bo'ldi,
 Alimquldek bahodur shohi lashkar ketti, kim qoldi,
 Shahodat orzusin etgan askar ketti, kim qoldi.

Lug'at Va Izohlar
 Anqarib - yaqin bo'lish
 Aduv - dushman
 A'mo - ko'zi ojiz, ko'r
 A'mol - amallar, ishlar
 Ag'niyo - bonlar, birligi: g'anny
 Baytul-hazanBТ" g'am-hasrat uyi
 Batn - qorin
 Baqya - davomi, qolgani
 Bebizoat - hech narsasiz, kambag'al
 Beta'xir - to'xtamay
 Behamto - yagona, yakka, o'xshashi yo'q
 Va-l yabku kasiran - ko'p yig'lasin [arabcha]
 Gabr - otashparast, majusiy
 Gisu - o'rilgan soch, kokil
 Dajjol - oxir zamonda paydo bo'ladigan aldoqchi, firibgar shaxsning nomi
 DayrBТ"1] butxona, 2] mayxona
 Dilovar - botir, qahramon
 Dorul-mulkBТ" mamlakatning markaziy shahri, poytaxt
 Duto - eg'ilgan, bukilgan
 JahimBТ"jahannam, do'zax
 Jomi vahdat - yakkayu yagona xudo
 Jomi' al-Qur'on - Qur'onni jamlovchi
 Jurm - gunoh.
 Zalil - xor, tuban, past
 Zeri turob - tuproqning tagi
 Zunnor - nasroniylar, zardushtiylar beliga.bog'lab yuradigan ip [g'ayri musulmonlpk belgisi]
 Iyodat - bemorni ko'rgani borish, kasaldan hol so'rash
 Ifsho - oshkor qilish, fosh qnlish
 Ihtiroz - saqlanish, o'zini chetga olish
 Kavsar - bihisht [jannah]dagi buloqning nomi
 Kiroman kotibayn - odamning yelkasida o'tirib, uning yaxshi va yomon
 ishlarini yozib boruvchi ikki farishtaga ishora
 Kohil - sust, tanbal
 "Kof'u "nun"БТ" mazkur harflardan tarkib topgan arabcha "kun" [bo'l] so'ziga ishora
 Kulli bani - hamma qavm, barcha odamlar
 "Kullu nafsin zoiqatul-mavt" - har bir jon [nafs] o'lim mazasini tortib ko'radi [arabcha]
 Qo'hkan - Farhodning laqabi
 Laylu nahor - kechayu kunduz.
 MazharBТ" oshkor, namoyon bo'ladigan joy
 Marqad - mozor, qabr
 Mashom - dimog', burun
 Ma'siyat - gunohkorlik
 Mahshar - qiyomat.
 Minqor - qushning tumshug'i
 Miftoh - kalit
 Muddaiy - da'vo qiluvchi
 Muzvar - majbur bo'lgan, nochor, noiloj
 Musallat - g'olib bo'lish, yengish
 Mustafa - 1) tanlangan; 2) Muhammad alayhis-salomning laqablaridan biri
 Muttako - suyanchiq
 Mushkilkusho - mushkillarni yechuvchi
 MushrikBТ"1) xudoning yagonaligiga ishonmaydigan odam; 2) butparast
 Mug'bachabТ" 1) mayfurushlik do'konining xizmatkori, shogirdi; 2) soqiy
 Muhol - qiyin, imkondan tashqari
 Nabiyino - payg'ambarimnnz (arabcha)
 Nayson - suryoniy oyining yettingchisi. Rivoyatga ko'ra, go'yo shu oyda yoqqan yomg'ir qatralaridan sadafda marvarid yig'iladi, aprelCH.
 Nigin - uzuk, muhrli uzuk
 Nibino - ko'zi ojiz
 Obi hayvon - tiriklik suvi
 Payrav - izdosh
 PashminabТ" 1) jundan to'qnigan mato. 2) chakmon
 Piri Kan'on - Yusuf alayhis-salomning otasi Ya'qub alayhis-salomga ishora
 Piri mug'onbТ"1) zardushtiy dinining peshvosi. 2) Mayxona egasi.
 Pushtu panoh - sunchiq, homiy, madadkor
 Po'ta, fo'ta - belbog'
 Rasul - payg'ambar, elchi

Rasululloh - ollohnning elchisi, payg'ambar

Rahzan - yo'lto'sar, qaroqchi

Rahmatan lil-olamin - butun olamlarga rahmat qilib... (arabcha)

Raho qilmoq - qutqarmoq

Riyozan - mashaqqat

Rizvon - sakkiz bihishtning biri

Rikob - uzangi

Risolatpanoh - elchilik, payg'ambarlikni CHbt panohi, Muhammad alayhissalomning sifatlaridan biri

RegistonBt" 1) qumlik joy, qumloq; 2) Farg'ona viloyati Bag'dod nohiyasi Chopdor qishlog'idagi joy

Ro'shno - nur, yorug'lik

SavtbT" 1) sado, ovoz; 2) qamchi

Sayyid al-mursalin - elchilarning siyyidi

SattorbT" 1) berkituvchi, yashiruvchi; 2) majoziy aybni berkituvchi, xudoning sifatlaridan biri

Safdar - botir, jasur

Sahoba - payg'ambar Muhammad alayhis-salomning hamsuhbatlari

Sivo - boshqa, bo'lak: (mosivo - hamma narsadan mahrum)

Sirotul-mustaqim - to'g'ri yo'l

SimobT" 1) qo'shiq, xonish; 2) zavq-shavq holati

Taboh - xarob, vayron

TajallibT" 1) jilva qilish, oshkor bo'lish, 2) ilohiy nur

Tarahhum - rahm qilish

Tariqat Bt" 1) yo'l, mazhab, 2) tasavvuf ta'limoti bo'yicha haqqa yetishish yo'lidagi ikkinchi bosqich.

Tasadduq - 1) sadaqa qilish, yaxshilik qilish, 2) kechirish, gunohidan o'tish

Tasxir - qo'lga kiritish, zabit etish

Tag'oful - bilib-bilmaslikka solish

To'sha - oziq-ovqat, yo'l ozigi

Uqbo - oxirat, narigi dunyo

Fujur - to'g'ri yo'lidan ozish

Fuzun - ortiq, ko'p

Hayr ila sharr - yaxshilik bilan yomonlik

Xayrul-bashar - 1) odamlarning yaxshisi, 2) Muhammad alayhis-salomning laqablaridan biri

Xalofat - xalifalik, podsholik

Hatti barot - ozodlik xati, xalos bo'lish hujjati

Xukbon - to'ng'iz boquvchi

Xushtakallum - shirinso'z

Chokar - xizmatkor

Sharorat - yomonlik

Shafi' qilmoq - vositachi qilmoq

Shaqovat - baxtsizlik, qiyinchilik

ShahodatBt" 1) guvohlik, 2) shahid bo'lish, qurban bo'lish

Shoyista - loyiq, munosib

Eron (eran) - er, mard

Ehrom - hajga boruvchilar kiyadigan oq libos

YaksarbT" 1) tanho, yakka, 2) birdaniga, daf'atan

Qabziyat - qiyinchilik, mashaqqat

Qaviy - baquvvat, kuchli

Qalil - ozgina

Qobizul arvoh - Azroni

Qone' (qoni')- qanoat qiluvchi, rozi bo'luvchi

Kum - Tur (arabcha)

G'amboda - g'amgin, g'am yutgan

G'ayr - boshqa, bo'lak; g'ayr az xudo - xudodan boshqa

G'alat - noto'g'ri

G'aniy - boy, badavlat

G'izo - ovqat oziq

G'ilu g'ash - parishonxotirlik, tashvishlannsh

G'ino - boylik _

G'ulom - qu'l

G'urbatkashida - g'ariblikni ko'rgan, musofirlilik mashaqqatini tortgan

Hajarul-asvod - Saudiya Arabistonining Makka shahridagi muqaddas qora tosh

Hazoron (hazor) - ming

DashrbT" 1) to'planish, yig'ilish, 2) qiyomat

Haftkishvar - yetti mamlakat

Hidoyat - to'g'ri yo'l ko'rsatish

Hijrat - ko'chish

HifzbT" asraf, saqlash

Hodiy - to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, rahbar

Hoziq - yaxshi biluvchi, o'z hunarini yaxshi o'zlashtirgan odam

This is not registered version of TotalDocConverter.
TotalDocConverter.com qozongan taraqati boshliqlaridan biri.

Jug'rofiy Va Kishi Nomi

Adans - Yamanning janubida joylashgan shahar nomi

Baytullo - Makka shahrida Ka'ba ziyoratgohi

Bobil - Iroqdagi qadimiy shahar. Vavilon

Jannatul-Baqya - Saudiya Arabistonining Madina shahridagi joy.

Miyno - Arabistondagi bir tog'

Muzdalifa - hajga borganlar Arofat tog'idan Miynoga qaytayotganda to'xtaydigan joy

Tur - Arabistondagi tog'

Xaybar - Madina bilan Damashq o'rtaisdagi voha va dovon nomi; 628 yilda payg'ambar Muhammad alayhis-salam zabit qilgan qal'a

Xonqiz, Chimyon - Farg'ona viloyati, Farg'ona nohiyasidagi qishloqlar Qarovultepa - Farg'ona viloyati, Bag'dod nohiyasidagi qishloq

Abu Bakr - payg'ambar Muhammad alayhis-salamning eng yaqin sahibalaridan biri

Adham - mashhur balxlik Ibrohim Adham, laqabi Abu Ishoq, 777 yilda vafot etgan

Ayyub - islomdan avval o'tgan payg'ambar, hamma azob-uqubatlarga bardosh bergani bilan nom qozongan

Ali - Muhammad alayhis-salamning kuyovlari

Alimqul - Qo'qon xonining sarkarsi, chor askarlariga qarshi kurashda halok bo'lган

Arastu - taniqli yunon faylasufi AristotelCH (eramizdan avvalgi 384Б"322- yillar)

Bilqis - Sulaymon payg'ambarning xotini

Vaysul Qaran - Shayx Uvays Qaraniy. Uvaysiya tariqatning asoschisi

Dovud - islomiyatdan avval o'tgan payg'ambar. Sulaymon payg'ambarning otasi

Xalilulloh - islomiyatdan avval o'tgan Ibrohim paygambarning laqabi

Shibliy - mashhur shayx Abu Bakr Muhammad Ja'far ibn Yunusning taxallusi (861Б"945 yillar)

Shoh Jalil - rivoyatlarga ko'ra, mazkur kishi payg'ambarimiz avlodlaridan bo'lib, maqbarasi Farona viloyati Buvayda nohiyasidagi

Poshshopirim qishlog'ida joylashgan. Mazkur maqbara me'morhilik obidasi sifatida davlat muhofazasiga olingan.

Shuayb - islomiyatdan avval o'tgan payg'ambar

Yunus - islomiyatdan avval o'tgan payg'ambar

Yusuf - Ya'qub payg'ambarning o'g'li